

IQTISODIYOTNI TARTIBGA SOLISHDA DAVLATNING ROLI

Jumayeva Zamira Bustonovna

Osiyo xalqaro universiteti o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10526290>

Annotatsiya. Bozor munosabatlariga asoslangan mamlakatlarda iqtisodiyotni tartibga solish borasida davlat muhim vazifalarni bajaradi. Davlat iqtisodiyotga faol aralashib, bozor mexanizmining amal qilishiga ko'maklashadi, raqobatchilik muhitini yaratib, aholini salbiy oqibatlardan himoyalash chora-tadbirlarini ko'radi. Bozor iqtisodiyotini davlat tomonidan tartibga solishdan ko'zlangan asosiy maqsad bozor munosabatlarini muayyan va ma'lum yo'nalishlar asosida rivojlantirib, iqtisodiy taraqqiyot sur'atlarini Jadallashtirish va aholi turmush darajasini oshirish choralarini ko'rishdan iboratdir.

Kalit so'zlar: *regulyator, xo'jalik yurituvchi sub'yektlar, subsidiyalar, soliq stavkasi, sanatsiya, diversifikatsiyalash, eksport va import muvozanati.*

ROLE OF THE STATE IN REGULATING THE ECONOMY

Abstract. *In countries based on market relations, the state performs important tasks in regulating the economy. The state actively intervenes in the economy, helps the functioning of the market mechanism, creates a competitive environment, and takes measures to protect the population from negative consequences. The main goal of regulating the market economy by the state is to develop market relations on the basis of certain and known directions, to accelerate the pace of economic development and to take measures to increase the standard of living of the population.*

Key words: *regulator, business entities, subsidies, tax rate, rehabilitation, diversification, export and import balance.*

РОЛЬ ГОСУДАРСТВА В РЕГУЛИРОВАНИИ ЭКОНОМИКИ

Аннотация. *В странах, основанных на рыночных отношениях, государство выполняет важные задачи по регулированию экономики. Государство активно вмешивается в экономику, помогает функционированию рыночного механизма, создает конкурентную среду, принимает меры по защите населения от негативных последствий. Основной целью регулирования государством рыночной экономики является развитие рыночных отношений на основе определенных и известных направлений, ускорение темпов экономического развития и принятие мер по повышению уровня жизни населения.*

Ключевые слова: *регулятор, субъекты хозяйствования, субсидии, налоговая ставка, реабилитация, диверсификация, баланс экспорта и импорта.*

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida rejali iqtisodiyot tizimidan xoli bo'lgan ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish davlatning asosiy vazifasi hisoblanadi. Bu borada davlat iqtisodiy islohotlar jarayoniga bosh islohotchi sifatida yetakchilik qilmoqda. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti: "O'tish davrining og'ir davrida davlatning o'zi bosh islohotchi bo'lishi kerak. Davlat butun xalq manfaatlarini ko'zlangan holda islohotlar jarayonining tashabbuskori bo'lishi, iqtisodiyotning yetakchi yo'nalishlarini belgilab berishi kerak. taraqqiyot,

iqtisodiyot, ijtimoiy sohada suveren davlatimiz sohasi va ijtimoiy-siyosiy hayotida tub o'zgarishlar siyosatini ishlab chiqish va izchillik bilan amalga oshirish zarur", deb ta'kidlagan edi.

Davlatimiz bozor iqtisodiyotini tartibga solish bo'yicha rivojlangan mamlakatlarda to'plangan boy tajribalarni o'rganish va ularni respublikamizning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda qo'llash maqsadga muvofiqligiga bugun hech kim shubha qilmaydi. Bozor munosabatlari sharoitida narxlar (narxlar) iqtisodiyotni tartibga solishning muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi. Bunda narx bozor regulyatori bo'lib, ikkita asosiy vazifani bajaradi. Birinchidan, u resurslar, tovar va xizmatlar iste'molini cheklaydi, ikkinchidan, mahsulot (xizmatlar) ishlab chiqarish uchun rag'batlantirish vazifasini bajaradi.

Ishlab chiqarish jarayonida qancha nodir iste'mol tovarlari va xizmatlari bo'lsa, ularning narxi shunchalik yuqori bo'ladi va shunga mos ravishda ularni xarid qilish chegaralanadi. Boshqacha qilib aytganda, tovarlar va xizmatlar ularning narxiga qarab iste'mol qilinadi, taqsimlanadi va qayta taqsimlanadi. Narxlarning o'zgarishi, ya'ni ko'tarilishi yoki tushishi ishlab chiqaruvchilarning xatti-harakatlariga ta'sir qiladi. Binobarin, har qanday tovar (xizmat) narxining oshishi uning ishlab chiqarish hajmining oshishiga, ushbu tarmoqning aniq mahsulot bozoriga yangi ishlab chiqaruvchilarning kirib kelishiga sabab bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Bozor iqtisodiyotida faqat foyda olishni ta'minlaydigan tovarlar (xizmatlar) ishlab chiqariladi. Ishlab chiqaruvchi uchun foyda keltirmaydigan tovarlar (xizmatlar) ishlab chiqarilmaydi. Muayyan tovar narxining pasayishi, uni ishlab chiqarish foydani ta'minlay olmay qolganligidan dalolat beradi. Bunday tovarlarni ishlab chiqarish kamayib boradi, ushbu tarmoq va bozorni ishlab chiqaruvchilar tark eta boshlaydilar. Demak, narxning bozor pasangisi, regulyatori vazifasini o'tashi tufayli ishlab chiqaruvchilar foydasiz yoki kam foyda keltiradigan tarmoqdan yuqori foyda keltiradigan tarmoqqa, sohaga o'tib turadi. Yuqori foyda keltirayotgan tarmoq yoki bozorlardagi iqtisodiy sub'ektlar o'zgalarning kirib kelishiga to'sqinlik qiladilar. Iqtisodiy sub'ektlar aniq tovarlar bozorida o'z mavqelarini saqlash, mustahkamlash, yaxshilash maqsadlarida o'zaro arini saqlash, mustahkamlash, raqobatga kirishadilar.

Ko'p sonli o'zaro raqobatlashuvchi iqtisodiy sub'ektlarning faoliyati natijasida bozor munosabati buzilib, undagi talab va taklif o'rtasida nomutanosiblik paydo bo'ladi. Bu nomutanosiblik ishlab chiqarish bilan iste'mol o'rtasidagi ziddiyatda o'z ifodasini topadi. Ijtimoiy ishlab chiqarish ijtimoiy iste'molga nisbatan o'sib ketishi natijasida davriy tanglik paydo bo'lishi mumkin.

Bozor mexanizmi xususiy tadbirkorlar uchun foyda kelishini ta'minlaydigan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishni rag'batlantiradi. Ammo jamiyat taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan, aholining ko'pchiligi foydalanadigan ijtimoiy tovarlar va xizmatlar xususiy tadbirkorlik doirasida ishlab chiqarilishi mumkin emas. Bunday ijtimoiy tovarlar va xizmatlarga: maktablar, yo'llar, yong'indan himoya qilish, mudofaa, milliy xavfsizlik va boshqalar kiradi. Binobarin, ularni ishlab chiqarishni va ulardan foydalanishni davlatning o'zi tashkil qilishi, tartibga solishi zarur bo'ladi.

Iqtisodiyotni tartibga solishning davlat mexanizmini taqozo etuvchi sabablardan biri aholini inson salomatligiga va tabiatga ziyon yetkazuvchi omillardan himoya qilish zaruratidir. Masalaning mohiyati shundaki, bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday xo'jalik yurituvchi tadbirkor, avvalo, o'zini o'ylaydi, o'z manfaati yo'lida faoliyat ko'rsatadi. Bu faoliyat ayrim hollarda

tabiatga yoki inson salomatligiga ziyon yetkazishi, davlat manfaatlariga zid kelishi mumkin. Bunday holatlar ham iqtisodiyotga davlatning aralashuvini, ko'p sonli tadbirkorlarning manfaatlarini barcha Jamiyat a'zolari mushtarakligini ta'minlash choralari ko'rishni taqozo etadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Iqtisodiyotni tartibga solishning eng muhim va asosiy vositasi amaldagi qonunchilik hisoblanadi. Mamlakatimizda qonun ustivorligi, ya'ni uning barcha uchun bab-baravar kuchga ega ekanligi va unga barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning so'zsiz amal qilishi shart ekanini yana bir bor ta'kidlab o'tish zarur. Hozirga qadar iqtisodiy hayotga taalluqli bo'lgan yuzlab qonunlarning qabul qilingani iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning huquqiy asoslarini belgilab beradi. Shu bilan birgalikda davlat ixtiyorida bir qator moliyaviy, ya'ni iqtisodiy vositalar ham mavjudki, ular yordamida davlat xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning manfaatlariga bevosita ta'sir ko'rsata oladi.

Soliqlar davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishning eng kuchli va ta'sirchan vositasi hisoblanadi. Ular har qanday ishlab chiqarish xarajatlari tarkibiga kiritiladi. Shuning uchun soliq stavkasi ko'tarilsa, korxonalar (firma) foydasi kamayadi va aksincha, bu stavkalar kamaysa, olinayotgan foyda ko'payadi. Demak, tovar ishlab chiqaruvchilarning moddiy manfaatdorligi ko'p jihatdan undirilayotgan soliqlar stavkasiga bevosita bog'liq. Soliqlar stavkasini oshirish yoki kamaytirish orqali muayyan ishlab chiqarish tarmoqlari rivojini sekinlashtirish (hatto to'xtatish), boshqa tarmoqlar rivojini esa rag'batlantirish mumkin.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning moliyaviy vositalaridan biri sanatsiya hisoblanadi. U asosan umumdavlat manfaatlaridan kelib chiqib, davlat korxonalariga ko'rsatiladigan moliyaviy yordamdir. Korxonalar qarzini kechib yuborish yoki uni o'zga sub'ektlar hisobidan qoplash, qarzni to'lash muddatlarini kechiktirish, qarz uchun to'lanadigan foizlarni kamaytirish, korxonaga buyurtma berib, uning haqini oldindan to'lab qo'yish va hokozalar sanatsiya shakllari hisoblanadi.

Davlat tomonidan aniq maqsadlar uchun qaytarib olmaslik sharti bilan ajratiladigan moliya mablag'lari subsidiyalar deb yuritiladi. Iqtisodiyotni tarkiban o'zgartirish (diversifikatsiyalash), eksport va import muvozanatini ta'minlash, ayrim hududlarga yordam berish kabi maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar (subsidiyalar) ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bojxona to'lovlari davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solish, aniqrog'i, eksport va importni cheklash yoki rag'batlantirishning muhim vositasi hisoblanadi. Ularning stavkalari ko'paytira, chegaradan o'tayotgan tovarlar miqdori kamayadi va aksincha, stavkalar kamayishi tovarlar oqimining ko'payishiga olib keladi. Yana shuni ham aytib o'tish joizki, davlat o'zining kredit siyosati orqali iqtisodiyot taraqqiyotiga ham o'zining ta'sirini o'tkazib turadi.

XULOSA

Davlatning iqtisodiyotni tartibga solish mexanizmidagi jamiyatda siyosiy, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash maqsadida aholining iqtisodiy jihatdan nochor yashayotgan guruhlarini ijtimoiy himoyalash muhim o'rin tutadi.

Davlatning iqtisodiyotni tartibga solish mexanizmidagi jamiyatda siyosiy, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash maqsadida aholining iqtisodiy jihatdan nochor yashayotgan guruhlarini ijtimoiy himoyalash muhim o'rin tutadi. Aholining yordamga muhtoj qismini ijtimoiy himoyalash

uchun jamiyat milliy iqtisodiyot tarmoqlarini, shu jumladan, qishloq xo`jaligini qo'llab-quvvatlash maqsadidagi daromadlar davlat tomonidan qayta taqsimlanadi. Daromadlarning qayta taqsimlash tizimida davlat muhim o`rin tutadi. Davlat tomonidan daromadlarning qayta taqsimlanishi iqtisodiyotni tartibga solish mexanizmining muhim unsuri hisoblanadi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmida makroiqtisodiy barqarorlashtirish chora-tadbirlari ham muhim o`rin tutadi. Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti sharoitida ishbilarmonlik faolligi o'zgarib turadi, iqtisodiy o'sish uning pasayishi bilan almashinib turadi. Uning oqibatida firmalarning sinishi va ishsizlarning ko'payishi ortadi, aholi turmush darajasi pasayadi, ular ko'p qiyinchiliklarni boshdan kechiradilar. Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash mexanizmi yordamida iqtisodiy o'sish tsiklidan tanglikka (pasayishga) o'tishdagi salbiy oqibatlarni cheklash, shuningdek, tanglikdan iqtisodiy o'sish sari o'tish imkoniyatlari vujudga keladi.

Shunday qilib, iqtisodiyotni tartibga solishning davlat mexanizmi Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatuvchi va ko'maklashuvchi chora- tadbirlar tizimidan iborat degan xulosa qilish mumkin.

REFERENCES

1. O'zbekiston Prezidentining 2020 yil 07 dekabrda "Davlat tomonidan tartibga solinadigan sohalarga xususiy sektorni jalb etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4913-sonli Qarori. <https://lex.uz/docs/-5146298>
2. Z.Yo'ldoshev, X.Xalilova. Milliy va jahon iqtisodiyoti (o'quv qo'llanma).2013.
3. <https://www.economicdiscussion.net/economic-development/role-of-state-ineconomic-development/13123>
4. <https://upscwithnikhil.com/article/economics/roles-of-state-in-an-economy>
5. Acemoglu D., S. Johnson, J. Robinson and Y. Thaicharoen (2003), "Institutional Causes, Macroeconomic Symptoms: Volatility, crises and growth", Journal of Monetary Economics, vol. 50, n. 1 January, pp. 49-123
6. Acemoglu D. and S. Johnson (2003), "Unbundling Institutions", NBER Working Paper No. 9934, 2003
7. Acemoglu, D., S. Johnson and J. A. Robinson (2001), "The Colonial Origins of Comparative Development: An Empirical Investigation", American Economic Review, Vol. 91, 1369-1401
8. Acemoglu, D., S. Johnson and J. A. Robinson (2002), "Reversal of Fortune: Geography and Institutions in the Making of the Modern World Income Distribution", Quarterly Journal of Economics, Vol. 117, 1231-94
9. Shadiyev, A. K. (2023). Stages of Development of The Digital Economy in Uzbekistan and Future Plans. Best Journal of Innovation in Science, Research and Development, 2(12), 333-340.
10. Shadiyev, A. (2022). O 'QUV EKSKURSIYASI-TURIZMNI O 'QITISHNING INNOVATSION USULI SIFATIDA. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 13(13).

11. Базарова, М. С., Шарипова, М., & Нуруллоев, О. (2021). “РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ” ДА АҲОЛИНИНГ ИШ БИЛАН БАНДЛИГИ ХУСУСИЯТЛАРИ. САМАРҚАНД ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ, 482.
12. Bazarova, M. S. (2022). FACTORS THAT ENSURE THE SUCCESSFUL IMPLEMENTATION OF A SYSTEM OF KEY PERFORMANCE INDICATORS IN THE FIELD OF HIGHER EDUCATION. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(11), 582-586.
13. Bahodirovich, K. B. (2023). EVOLUTION OF THE AUDITING PROFESSION IN THE SMART MACHINE AGE. *Gospodarka i Innowacje.*, 41, 450-454.
14. Khalilov Bahromjon Bahodirovich. (2023). The International Financial Reporting Standards (IFRS) Mean to Businesses and Investors in Uzbekistan. *Miasto Przyszłości*, 42, 746–750.
15. Raxmonqulova, N. (2023). DEVELOPMENT STRATEGY IN THE DEVELOPMENT OF THE REGIONAL ECONOMY. *Modern Science and Research*, 2(12), 301-305.
16. Abdulloev, A. J., & Rakhmankulova, N. O. THEORETICAL ASPECTS OF THE INNOVATIVE ENTREPRENEURSHIP CONCEPT.
17. Sh, Y. D., & Rakhmanqulova, N. O. (2021). XUSUSIY SHERIKCHILIK VA TURIZM KLASTERI SOHASIDAGI TADBIRKORLIK RIVOJIDA DAVLATNING O’RNI. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 1(2), 73-76.
18. Явмутов, Д. Ш., & Рахманкулова, Н. О. (2021). РОЛЬ ОБРАЗОВАНИЯ В РАЗВИТИИ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА. ТА’ЛИМ VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 1(2), 23-28.
19. Рахманкулова, Н. (2023). РОЛЬ ИНВЕСТИЦИЙ В РЕГИОНАЛЬНОМ ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ. *Gospodarka i Innowacje.*, 36, 168-170.
20. Sodiqova, N. (2023). A POLITICAL ECONOMY ANALYSIS OF ECONOMIC SECURITY. *Modern Science and Research*, 2(12), 559–568.
21. То’rayевна, S. N. (2023). ДЕМОКРАТИЯ VA IQTISODIYOT O’RTASIDAGI MUNOSABAT" SIYOSIY SHAXS" NAZARIDAN. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 387-394.
22. То’rayевна, S. N. (2023). YETAKCHILIK USLUBI SIFATIDA MURABIYOTDAN FOYDALANISH MENEJERLARNI TAYYORLASH. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 399-408.
23. Toshov, M. (2023). FORMATION OF PRINCIPLES HR (HUMAN RESOURCE) BASED ON KEY INDICATORS (KPI). *Modern Science and Research*, 2(12), 477–482.
24. Toshov, M. (2023). CREATIVE ECONOMY: ESSENCE AND STRUCTURE. *Modern Science and Research*, 2(12), 499-505.
25. Toshov, M. (2023). HR BOSHQARMASIDA KPI TIZIMI. *Modern Science and Research*, 2(12), 470–476.
26. Очиллов, Ш. Б., & Жумаева, З. К. (2017). Основные направления развития инноваций в республике Узбекистан. *Инновационное развитие*, (6), 45-47.

27. Жумаева, З. К., & Тошев, Ф. З. (2017). Пути дальнейшего совершенствования привлечения прямых иностранных инвестиций в экономику Узбекистана. *Инновационное развитие*, (4), 66-68.
28. Akbarovna, N. N. (2023). BULUTLI HISOBLASH TEXNOLOGIYALARINING IQTISODIYOTDA TURGAN ORNI. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 517-520.
29. Nargiza, N. (2023). THE ROLE OF PROPERTY RELATIONS IN SOCIETY. *Modern Science and Research*, 2(12), 889–893.
30. Ibodulloyevich, I. E. (2023). DAVLAT BUDJETI DAROMADLARINI TAQSIMLANISHINI TAKOMILLASHTIRISH. *Gospodarka i Innowacje.*, 41, 321-325.
31. Ibodulloyevich, I. E. (2023). KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI YANADA RIVOJLANTIRISH UCHUN QULAY ISHBILARMONLIK MUHITINI SHAKLLANTIRISH. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 481-484.
32. Ikromov, E. (2023). REGULATION OF BUSINESS ACTIVITY IS SIMPLIFIED. *Modern Science and Research*, 2(12), 1107–1111.
33. Jumayeva, Z. (2023). BASICS OF NATIONAL ECONOMIC DEVELOPMENT. *Modern Science and Research*, 2(12), 296–300.
34. Bustonovna, J. Z. (2023). PECULIARITIES OF THE AGRICULTURAL ECONOMY IN THE COUNTRIES OF THE EUROPEAN UNION. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(5), 1256-1260.
35. Abidovna, A. S. (2023). MONTE CARLO MODELING AND ITS PECULIARITIES IN THE IMPLEMENTATION OF MARKETING ANALYSIS IN THE ACTIVITIES OF THE ENTERPRISE. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 375-380.
36. Abidovna, A. S. (2023). PRIORITY DIRECTIONS OF ANALYSIS OF CHANNELS OF PROMOTION OF THE MAIN ACTIVITY OF THE ENTERPRISE AND SEPARATE COMMUNICATION PROGRAMS. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 369-374.